



Sotsiologiya va huquq

Ilmiy jurnal
9-jild
10/1/1-son



ISSN 2181-3221

2025

MUNDARIJA

IJTIMOYIY HIMOYA – SOTSIOLOGIK TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA Xusanova X., Abdullayeva M.	11
ZAMONAVIY AVLOD VA SOTSIOMADANIY IDENTIKLIKNING O'ZARO ALOQADORLIGI Kalanova S.	16
IJTIMOYIY REKLAMA: MAZMUN-MOHİYATI, SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI Jiyanmuratova G., Patxullayeva Z.	22
JAMIYATDA HUQUQBUZARLIKLAR IJTIMOYIY PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISHDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYATNING O'RNI Tolipov A.	29
NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARGA IJTIMOYIY XIZMATLARNI KO'RSATISHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI Kamilov F.	36
NODAVLAT NOTIJORAT YOSHLAR TASHKILOTLARINING YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGIGA TA'SIRI SOTSIOLOGIK TAHLILI Ibragimov M.	42
IJTIMOYIY STRATIFIKATSIYA JARAYONI: NAZARIY ASOSLAR VA EMPIRIK TAHLIL Xujanov Z.	49
YOSHLARDA SIYOSIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI Nurulloyev Sh.	57
YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI SIYOSIY ONGINI MODERNIZATSIYALASH ISTIQBOLLARI Safarov M.	63
YOSH RAHBARLAR BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI SOTSIOMETRIK O'LGHASH MEZONLARI Xakimova A.	67
ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI Tursunboyev J.	72
SOTSIOLOGIK ILMIY MAKTABLARNING JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN QAYTGAN YOSHLARGA OID NAZARIY YONDASHUVLARI Xasanov Sh.	78

Muxlis SAFAROV
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar”
kafedrası katta o‘qituvchisi
el.poch: m.safarov@cspu.uz.,

sots.f.b.f,d.,dotsent. Q.Qayumov taqrizi ostida

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI SIYOSIY ONGINI MODERNIZATSIYALASH ISTIQBOLLARI

♦ Maqolada mamlakatimiz yoshlarining siyosiy ongini o‘ziga xos jihatlari hamda modernizatsiyalash istiqbollari ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Shuningdek, muallif yoshlar siyosiy ongini shakllanishi bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan tadqiqotchilar qarashlariga o‘z munosabatini bildirgan. Maqola mamlakatimiz yoshlari siyosiy ongini modernizatsiyalash istiqbollarini ilmiy o‘rganish imkoniyatini beradi.

♦ В статье научно исследуются специфические аспекты политического сознания молодежи нашей страны и перспективы модернизации. Также автор выразил свою реакцию на взгляды исследователей, проводивших научные исследования по вопросам формирования политического сознания молодежи. Статья дает возможность научно изучить перспективы модернизации политического сознания молодежи нашей страны.

♦ In the article, the specific aspects of the political consciousness of the youth of our country and the prospects of modernization are scientifically studied. Also, the author expressed his reaction to the views of researchers who conducted scientific research on the formation of political consciousness of young people. The article provides an opportunity to scientifically study the prospects of modernization of the political consciousness of the youth of our country.

Kalit so‘zlar: Siyosiy hayot, siyosiy ong, modernizatsiyalash, siyosiy tizim, tendensiya, siyosiy partiya, siyosiy institut, siyosiy qadriyat, liberal qadriyat.

Ключевые слова: Политическая жизнь, политическое сознание, модернизация, политическая система, тенденции, политическая партия, политический институт, политическая ценность, либеральная ценность.

Key words: political life, political consciousness, modernization, political system, trends, political party, political institution, political value, liberal value.

Kirish. Mamlakat siyosiy hayotidagi uzluksiz o‘zgarishlar davlat siyosiy tizimining maqsadlari va tamoyillarida aks etishi bilan birga uning yo‘nalishlarini ham oldindan belgilab beradi. Bu kabi o‘zgarishlar jamiyat siyosiy hayotini modernizatsiyalashining ichki tuzilishiga, uning elementlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, buni bugungi kunga kelib yoshlarni ijtimoiy faoliyatga va siyosiy hayotga jalb qilish hamda ularning siyosiy ongini

modernizatsiyalashib o‘zgarib borayotganligida ko‘rishimiz mumkin. Zero, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, yangi O‘zbekiston strategiyasi, olijanob niyatlarni amalga oshirish, yangi hayot qurish yo‘lidagi beqiyos o‘zgarishlar ham-mamizdan fidoyilik va bunyodkorlikni, yanada katta jonbozlikni talab etmoqda [1].

Jamiyat siyosiy hayotini yanada erkinlashtirishning zamonaviy sharoitida esa turli xil ijtimoiy guruhlarini,

shu jumladan, yoshlarni siyosiy munosabatlar sohasiga olib kirish imkoniyatlari ancha kengaydi. Shu bilan birga, liberal o'zgarishlar o'zining ustun yo'nalishini saqlab, asta-sekin o'zining ijtimoiy va siyosiy barqarorligining yangi shakllarini barpo etishga intilmoqda. Bu esa o'z navbatida jamiyat siyosiy hayotini yangicha islohotlari sharoitida yoshlarning siyosiy ongini shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham, yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida yoshlar siyosiy ongini modernizatsiyalash istiqbollarini nazariy jihatdan o'rganish, uning mexanizmlarini ishlab chiqish va ijtimoiy-madaniy tartibga solish usullarini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yoshlar siyosiy ongini shakllanishi o'rganilgan bir qatar ilmiy tadqiqotlar mavjud. Biroq bugungi kunda yangi O'zbekiston yoshlari siyosiy ongini modernizatsiyalash istiqbollarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari yetarlicha emas. Shu bois maqolamizda mavjud ilmiy tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilib, dalillariga asoslangan holda analiz va sintez metodi orqali muammoning futurologik jihatdan tahlil qilish orqali, Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarning siyosiy faolligining kelgusi 5-10 yillik tendensiyalarini o'rganish, ularning siyosiy faolligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularning siyosiy ishtirokining hozirgi holatini baholash, kelgusi 5-10 yilda yoshlarning siyosiy faolligining ehtimoliy senariylarini ishlab chiqish hamda ishlab chiqilgan senariylar asosida yoshlar siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilamiz.

Tahlil va natijalar. Yangi O'zbekiston jamiyatining barcha sohalarida davom etayotgan o'zgarishlar, yoshlar siyosiy ongining shakllanish jarayonini modernizatsiyalash nuqtai nazaridan tahlil qilishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Yangi O'zbekiston jamiyati siyosiy hayotini modernizatsiyalashining hozirgi bosqichi yoshlar siyosiy ongini o'zgartirish bilan bog'liq barqaror rivojlanish istiqbollari bilan tavsiflanadi.

Hozirgi sharoitda yoshlarga maqsadli ta'sir faollashmoqda, lekin avvalgidan ko'ra ko'proq uning siyosiy ongini shakllantirishda o'zini o'zi tartibga soluvchi omillar ham namoyon bo'lmoqda [3]. Bizningcha, yoshlar guruhini o'ziga xosligining namoyon bo'lishi va ularning ongini ijtimoiy tartibga solish usullari bilan bog'liq xarakterli tendensiyalar zamonaviy o'zbek yoshlarining siyosiy ongining ijtimoiy-madaniy modelarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapirishimizga imkon beradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston jamiyati taraqqiyotidagi barqarorlik tendensiyasi yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishning qadriyatli-me'yoriy va o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarida yangicha ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Mashhur ingliz jamiyatshunosi

Entoni Giddensning ta'biri bilan aytganda, jamiyatning to'liq noaniqlik holatidan barqaror rivojlanishga o'tishi yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishning qadriyatli-me'yoriy mexanizmlarini faollashtirishga yordam beradi va o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarining muvaffaqiyatli ishlashi uchun sharoit yaratadi [4]. Qolaversa, siyosiy-falsafiy va sotsiologik fanlarda shakllangan yoshlarning siyosiy ongining asosiy tushunchalarini tahlil qilish ushbu ijtimoiy guruhning muhim xususiyatlarini: tarkibiy darajalari, elementlari, shakllari va boshqalarni ko'rib chiqishga imkon beradi. Boshqa yosh guruhlari bilan taqqoslaganda yoshlarni siyosiy ongining o'ziga xosligi ushbu hodisaning tarkibiy elementlarining mazmuni, barqarorligi darajasi va rivojlanishi bilan belgilanadi. Yoshlarning siyosiy ongi tarkibida ikkita asosiy daraja ajratiladi: oddiy, siyosiy haqiqatni bilishning empirik uslubiga mos keladigan va qadriyatlar, afsonalar, nazariyalar va boshqalarning siyosiy ideallarini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan nazariy daraja [5]. Yoshlarning oddiy siyosiy ong darajasi ko'proq siyosiy voqelikning o'z-o'zidan aks etishining mahsuli bo'lib, nazariy darajani siyosiy ijtimoiylashuvning ijtimoiy institutlari maqsadga muvofiq ravishda shakllantiradi. Demak, yoshlarning siyosiy ongi tarkibida uning siyosiy ehtiyojlari, qiziqishlari va qadriyatlari o'zaro ta'sirining mahsuli bo'lgan faoliyat sohasi motividir, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Shuningdek, siyosiy manfaatlar ularning siyosiy ongining asosiy elementidir, deyishimiz ham mumkin. Bu esa albatta, ushbu ijtimoiy-demografik guruhning siyosiy dunyoga bo'lgan ehtiyojlari va talablarini aks ettiradi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, siyosiy bilimlar va siyosiy tuyg'ular ham yoshlar siyosiy ongining muhim elementlari hisoblanadi.

Aksariyat tadqiqotchilarning fikricha, yoshlarning siyosiy ongini o'rganishda reproduktiv va riskologik yondashuvlardan foydalanish ushbu hodisani maxsus ijtimoiy-demografik guruh sifatida siyosiy-sotsiologik o'rganish kontseptsiyasini ishlab chiqishga, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida uning muhim xususiyatlarini ta'kidlashga imkon beradi [6]. Ammo, biz Mertondan farqli ravishda yoshlarni jamiyatning bir qismi sifatida tavsiflaydigan, ularning siyosiy ongi, boshqa yosh guruhlari ongidan farqli ravishda o'ziga xos shakllariga ega ekanligini ta'kidlaymiz. Yana shuni ham aytib o'tishimiz lozimki, ijtimoiy guruh sifatida yoshlarning mustaqilligi uning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi roli va funksiyalari bilan belgilanadi, deb aniq ayta olamiz. Bu o'rinda yoshlar quyidagi ijtimoiy funksiyalarni bajaradilar: birinchisi, tarixiy tajribaning uzluksizligi, ikkinchisi, uni innovatsion o'zgartirish va uchinchisi, keyingi avlodlarga yetkazish vazifasidir [7]. Yoshlar ijtimoiy-demografik guruh sifatida o'z tarkibida geterogendir.

U turli qatlamlardan yoshi, iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va boshqalar bo'yicha ajralib turadi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning siyosiy ongidagi farqlanishni ham yuzaga keltiradi. Shuningdek, "yoshlarning o'tish bosqichi ularning ijtimoiy mavqeining xususiyatini belgilaydi" deb ko'rsatadi, tadqiqotchi V. Yulov [8]. Bizningcha ham, yoshlarning bir ijtimoiy bosqichdan ikkinchisiga o'tishlari yoshlarning ijtimoiy pozitsiyasining marginalligini belgilaydi. Ushbu xususiyatlar yoshlar siyosiy ongining muhim xususiyatlarida aks etadi.

Yoshlarning ijtimoiy mavqeining o'tish davri tabiati ularning siyosiy ongini modernizatsiyalashi uchun asos bo'lib, u siyosiy g'oyalar va pozitsiyalarning beqarorligida, siyosiy voqealarni ko'p talqin qilishida namoyon bo'ladi. Yoshlarning siyosiy ongi xavf va marginallik bilan bog'liq bo'lib, siyosiy haqiqat hodisalarini talqin qilishda o'z g'oyalariga haddan tashqari ishonib qarash va harakatlarga sodiqlikni aks ettiradi. Ijtimoiy-madaniy sharoitdagi farqlar yoshlar guruhlarida transgressivlikni shakllantiradi, bu shaxslarning ijtimoiy chegaralarini buzish, o'zlarini hozirgi kunga yo'naltirish uchun kelajakka qarash istagi bilan ifodalanadi [9].

O'zbekiston jamiyatida keyingi yillarda yangicha tartib-taomillar o'rnatildi, ammo makro va mikro darajadagi noaniqlik potentsiali saqlanib qolmoqda. Bu o'zini o'zi tashkillashtirishdagi tartibsizlikda va ijtimoiy jarayonlarning to'liqsizligida namoyon qiladi. Ushbu omillar zamonaviy o'zbek jamiyatini o'zgartirishning hozirgi bosqichida yoshlarning siyosiy ongida ziddiyatlarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston jamiyatidagi beqarorlik va ijtimoiy-madaniy inqiroz hali bartaraf etilmagan sharoitda yoshlarning siyosiy ongida uni tartibga solishning deformatsiyalangan qiymat-normativ institutsional mexanizmlari va o'zini o'zi boshqarish mexanizmlarini faollashtirish o'rtasida ziddiyat paydo bo'ladi. Bizning nazarimizda, yoshlarning yangi xavfli sharoitlarga moslashishini shakllantirish va aksariyat yoshlarning an'anaviy konformistik modelni qabul qilish, e'lon qilingan siyosiy yo'nalishga yo'naltirish orqali sodir bo'ladi. Ba'zi olimlarning fikricha, siyosiy sohadagi yoshlar guruhlari tomonidan tavakkalchilikni ratsionalizatsiya qilishning turli usullari siyosiy ongning ichki qarama-qarshiligini belgilaydi [10]. Haqiqatdan ham siyosiy hayotni o'zini o'zi boshqarishning an'anaviy usullari zamonaviy modellar bilan o'zaro aloqada bo'lganda va yoshlarning siyosiy ongining qarama-qarshi tomonini shakllantirishda yoshlarning bilimlari muhim rol o'ynaydi.

Jamiyat siyosiy hayoti asoslarini modernizatsiyalashi sharoitida yoshlar ongidagi o'zgarishlarning obyektiv va subyektiv xavf omillari ko'pchilik soha olimlarining nazarida yoshlarning siyosiy ongiga ta'sirini kuchaytiradi [11]. Shunday qilib, yoshlarning siyosiy

ongidagi yana bir qarama-qarshilik uchun shartlar paydo bo'ladi va bu obyektiv faoliyatga asoslangan xavf shakllari sifatida o'zini namoyon etadi. Shuningdek, yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy mexanizmlarini aniqlash ularni siyosiy ongidagi o'zgarishlarni kuzatish imkonini yaratadi.

Rivojlanishning hozirgi bosqichida yangi O'zbekiston jamiyatining rivojlanishida barqarorlik tendensiyasining shakllanishi zamonaviy o'zbek yoshlari uchun yangi maqsadlar va ko'rsatmalarga ega bo'lgan qiymat-me'yoriy mexanizmlarning faollashuviga yordam beradi. Ushbu jarayonlarning natijasi yoshlar siyosiy ongida ijtimoiy konservativ qadriyatlarni, siyosiy hokimiyat mohiyati to'g'risida barqaror g'oyalarni shakllantirishdir. Shu bilan birga, yoshlar siyosiy ongida salbiy tendensiyalar saqlanib qolmoqda, ular orasida davlat va jamoat tuzilmalariga ishonchsizlik va mozaikali siyosiy madaniyatni shakllanishi kabilarni ko'rsatish mumkin.

Yoshlar siyosiy ongini shakllantirishning qadriyat-me'yoriy mexanizmlaridan farqli o'laroq, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari ham zarur. Parsons nazariida ular muhim, kerakli va maqsadga muvofiqligi to'g'risida individual-guruh g'oyalariga asoslanadi [12]. Ushbu qarashlar ma'lum bir ijtimoiy guruhning siyosiy ongini o'zini o'zi boshqarish shakllari va usullarining asosiy manbai hisoblanadi. O'z-o'zini boshqarish mexanizmlari foydasiga tanlov yoshlarning siyosiy ongining motivatsion sohasida yuzaga keladi va siyosiy sohadagi ehtiyojlar, manfaatlar, qadriyatlar, munosabat, motivlar va ideallarning yo'nalishi bilan belgilanadi.

Jamiyat siyosiy hayotini modernizatsiyalashi jarayoni yoshlar ongida o'zgaruvchanlik, individualizatsiya bilan bog'liq bo'lgan o'z-o'zini boshqarishning maxsus turini keltirib chiqaradi. O'z-o'zini boshqarish jarayoni ehtiyojlar, manfaatlar va qadriyatlarning ma'nosini qayta taqsimlaydi, shu bilan siyosiy munosabatlar subyektining o'zgaruvchan haqiqatga moslashishiga yordam beradigan yangi modellarni izlaydi. Siyosiy ong modellarining beqarorligi va dolzarbligi modernizatsiya mexanizmini amalga oshirishga hissa qo'shib, o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarining intuitivligini belgilaydi.

O'tkazilgan tadqiqotlarning tahlillari ko'rsatganidek, bugungi zamonaviy o'zbek yoshlarining siyosiy ongidagi avtoritar va demokratik munosabatlarning tahlili uning nomuvofiqligidan dalolat beradi. Ushbu qarama-qarshilikning oqibatlaridan biri zamonaviy o'zbek yoshlarining siyosiy ongida o'zini o'zi boshqarish turiga taqlidning paydo bo'lishidir. Yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy mexanizmlarini o'rganish siyosiy partiyalarni siyosiy institutlar va yoshlar tashkilotlarini o'zini o'zi tashkil etish shakllari sifatida ko'rib chiqishga yordam beradi.

Jamiyatdagi siyosiy partiyalar guruh manfaatlarini to'playdilar, bu ijtimoiy-madaniy darajada hukmron siyosiy partiya tomonidan qonuniy qadriyat-me'yoriy makon ustidan monopoliyaga erishishda ifodalanaadi. Ushbu siyosiy institutlar yoshlarning siyosiy ongini shakllantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi, chunki ular bu jarayonni qadriyatga yo'naltirilgan va qadriyat-me'yoriy mexanizmlar orqali tartibga soladilar. Partiya hayotiga qo'shilish orqali yoshlar siyosiy sotsializatsiya obyekti va subyektlariga aylanishadi, natijada siyosiy ongni shakllantirishga imkon yaratishadi.

O'zbekiston jamiyatining tubdan o'zgarishi sharoitida institutsional mexanizmlarning noto'g'ri ishlashi tufayli siyosiy partiyalarning yoshlarga bo'lgan qiziqishi, asosan, saylov kompaniyalari davrida vaziyatli xususiyat kasb etadi. O'zbekiston jamiyatini o'zgartirishning hozirgi bosqichida siyosiy institutlar faoliyatida yoshlarga nisbatan aniqlik tendensiyasi kuzatiladi. Siyosiy institutlar faoliyatini jonlantirish sharoitida yoshlar siyosiy partiyalar faoliyatiga ishonchsiz bo'lib qoladilar va siyosiy partiyalar tomonidan yoshlarning o'ziga nisbatan ular asosan instrumental yondashuvni qo'llaydilar. Shu sababli, siyosiy partiyalarning ushbu sharoitda yoshlarning siyosiy ongini shakllantirishga real ta'sirini samarali deb hisoblash mumkin emas. G'arb olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, aksariyat yoshlar tashkilotlarining davlat idoralari va siyosiy partiyalardan mustaqilligi tendensiyasining paydo bo'lganligini ko'rsatadi [13].

Jamiyatni modernizatsiyashishining hozirgi bosqichida yoshlarning siyosiy tashkilotlarida ishtirok etishga qiziqishi mavjud. Ushbu tashkilotlar faoliyatiga davlatning qiziqishi sezilarli darajada oshdi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqot ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, amaldagi hukumatni va u olib borayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlovchi va milliy-vatanparvarlik harakatlari yoshlarning siyosiy ongini o'zini o'zi boshqarish jarayoniga eng katta ta'sir ko'rsatmoqda. Yoshlar harakati ishtirokchilarining motivatsion tarkibida biz uchta asosiy motivlarni ajratamiz: o'z-o'zidan paydo bo'ladigan (ekspressiv), instrumental va g'oyaviy motivlar. Milliy-vatanparvarlik, millatchi va liberal harakatlar ishtirokchilari asosan mafkuraviy motivlarga asoslangan. Vaziyatli, o'z-o'zidan paydo bo'lgan turtki turi ko'proq hozirgi islohotlar faoldorlari faoliyatini tavsiflaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston jamiyatining barqaror rivojlanishiga o'tish sharoitida yoshlarning siyosiy ongining mafkuraviy yo'nalishidagi aniqlik darajasini oshirish tendensiyasi kuzatildi. Shu bilan birga, o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarining o'z-o'zidan paydo bo'lishi yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvida yetakchi rol o'ynamoqda. Tahlillar natijasida shuni aytish mumkinki, ratsionalizatsiya mexanizmlari, ratsionallik turlarini aniqlash, jamiyat taraqqiyotida noaniqlikdan barqarorlikka o'tishda yoshlarning siyosiy haqiqati haqidagi bilimlarni sotsial-madaniy dinamikalar sharoitlariga moslashtirish masalalari yanada chuqur rivojlanishga muhtoj.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Mirziyoyev Sh.M "Yangi O'zbekiston". – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 20-6.
2. Ковалева, А.И., Луков, В.А., Erikson, R.S., Wright, G.C., McIver, J.P., Кравченко, С.А., Бандура, А., Гидденс, Э., Мертон, Р.К., Тощенко, Ж.Т., Юлов, В.Ф., А.И.Щербинина, Павлова, Е.Д., Чупров, В.И., Зубок, Ю.А., Парсонс, Т., Щербо, И.А., Игнатов, В.Г., Нифанов, А.Н., Беспаленко, П.Н., и др.
3. Кравченко, С. А. Социология модерна и постмодерна в динамически меняющемся мире. М. МГИМО – Университет, 2007. – 264 с.
4. Гидденс, Э. Устроение общества: очерк теории структуризации. М. : Академический Проект, 2005. – 528 с.
5. Политическая социология. М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2002. – 495 с.
6. Мертон, Р. К. Социальная теория и социальная структура. Социальная структура и аномия // Социс. 1992. – № 2 – 4. 29 с.
7. Тощенко, Ж. Т. Фантомы общественного сознания и поведения // Социология. М. : Академический проект, 2005. – № 1. – С. 92 – 107.
8. Юлов, В. Ф. Мышление в контексте сознания. М. : Академический Проект, 2005. - 476-496 с.
9. Проблемы политических ценностей в условиях трансформации режима: научный ежегодник Томского МИОН-2003 / Под ред. А.И. Щербинина. -Томск : Том. ун-т, 2004. 252 с.
10. Павлова, Е. Д. Проблема информационного воздействия на сознание в постиндустриальном обществе // Личность, культура, общество. М., 2007. -Т. IX, вып. 1 (34). – С. 226 – 241.
11. Чупров, В.И., Зубок, Ю. А. Молодежь в общественном воспроизводстве: проблемы и перспективы. М. : РИЦ ИСПИ РАН, 2000. – 116 с.
12. Парсонс, Т. О структуре социального действия. – М. : Академический. Проект, 2000. 880 с.
13. Игнатов, В. Г., Нифанов, А. Н., Беспаленко, П. Н. Региональная молодежная политика: проблемы и опыт становления. Ростов-н/Д, 1999. – С. 94.